





Nogironligi bor insonlarning pensiya olishga bo‘lgan huquqi




Illyustratsiya	Oson matn
	Bu maqolada sen pensiya olishga bo‘lgan huquqlaring haqida bilib olasan.
	**Nogironlik pensiyasi –** bu nogironligi bor insonlar hayotini osonlashtirish uchun davlat tomonidan beriladigan pul.
	Pensiya ta’minoti haqidagi qonunning 1-moddasiga ko‘ra, O‘zbekistonda yashovchi insonlar davlat tomonidan pensiya olish huquqiga ega. [1].
	Pensiya ta’minoti haqidagi qonunning **15-moddasiga** ko‘ra nogironlik pensiyasi beriladigan insonlar: ● Birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bor insonlar ● Chernobil AESdagi avariyada kasal bo‘lib, uchinchi guruh nogironi bo‘lganlar.




	Chernobil AES – bu Chernobildagi Atom elektr stansiyasi. U 1986- yilda portlagan.
	Nogironlik pensiyasi 3 guruhga bo‘linadi va shunga qarab pensiya beriladi.
	Pensiya Moliya Vazirligining pensiya jamg‘armasi bo‘limlari tomonidan belgilanadi.
	**Nogironligi bor insonlar uchun pensiya turlari:** ● Sen ish payti jarohatlansang ● kasbing sabab kasal bo‘lsang ● qancha vaqt ishlagan bo‘lsang ham nogironlik pensiyasini olishing mumkin.
	Masalan: ● Sen zavodda 21 yoshingdan ishlaysan. ● 24 yoshda zavodning zaharli havosi sabab kasal bo‘lding. ● Sen 3 yil ishlagansan.

	• Sen kam ishlagan bo‘lsang ham nogironlik pensiyasini olishing mumkin.
	• Senda kasallik sabab nogironlik paydo bo‘lgan vaqtgacha ishlagan vaqtingga qarab **nogironlik pensiyasi beriladi.**
	**Nogironlik pensiyasi:** • 23 yoshgacha, 2 yillik ish tajribasi hisoblanadi • 23 yoshdan 26 yoshgacha 3 yillik ish tajribasi hisoblanadi • 26 yoshdan 31 yoshgacha 5 yillik ish tajribasi hisoblanadi • 31 yoshdan 36 yoshgacha 7 yillik ish tajribasi hisoblanadi • 36 yoshdan 41 yoshgacha 9 yillik ish tajribasi hisoblanadi • 41 yoshdan 46 yoshgacha 11 yillik ish tajribasi hisoblanadi • 46 yoshdan 51 yoshgacha 14 yillik ish tajribasi hisoblanadi • 51 yoshdan 56 yoshgacha 17 yillik ish tajribasi hisoblanadi • 56 yoshdan katta bo‘lsa, 20 yillik ish tajribasi hisoblanadi.

	Masalan: ● Sen 27 yoshgacha ishlagansan. ● Senda kasallik sabab nogironlik paydo bo‘ldi. ● Sening yoshing 27 da ekanligi sababli 5 yillik ish vaqti hisoblanadi.
	Oliy kengash va Vazirlar mahkamasining qaroriga ko‘ra, Chernobil AES sababli kasal bo‘lgan insonlar zararni qoplaydigan miqdorda nogironlik pensiyasi olishi mumkin. [3].
	Chernobil AES halokatida nurlanib zararlangan insonlarni uchta guruhga bo‘lib nafaqa beriladi: ● birinchi guruh ● ikkinchi guruh ● uchinchi guruh
	● 2011-yil 1-yanvardan boshlab uchinchi guruh nogironlik belgilangan shaxslarga **pensiya berilmaydi** ● Lekin **Chernobil AES sababli uchinchi guruh** nogironligi bor insonlarga nafaqa **beriladi.**[4]

	• 20 yoshgacha kasallik sababli ishlamagan • ish vaqtida yoki ish to‘xtatilganidan keyin nogiron bo‘lib qolgan insonlarga ham beriladigan pensiya turlari bor.
	**Nogironlik Pensiyasini olishingda kerak bo‘ladigan hujjatlar:** • sening pensiya olish uchun yozgan arizang • ishlagan vaqtingni tasdiqlovchi hujjat • oylik haqida guvohnomang • pasport yoki ID kartang • nogironliging haqidagi hujjat • yashash joyingdan ma’lumotnoma • Vazirlar Mahkamasining “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibi haqida”gi qarorida yozilgan boshqa hujjatlar.
	**Yashash joyingdan ma’lumotnomada** - oilangda yashaydigan barcha insonlarning: • familiyasi • ismi va otasining ismi • tug‘ilgan yili • oyligi • senga kim ekanligi yozilishi kerak.

	Sen pensiya yoshiga yetganingdan keyin kerakli hujjatlarni to‘plab, pensiya olish uchun ariza berishing mumkin.
	Bergan arizang 10 kunda ko‘rib chiqiladi.
	Ishlamagan insonlarning pensiyasi – oyiga 800 000 (sakkiz yuz ming) so‘m.
	• Ishlay olmaydigan yoki bolalikdan nogiron bo‘lgan insonlarning pensiyasi – oyiga 800 000 (sakkiz yuz ming) so‘m.
	**Pensiyani qayta hisoblash** – senda nogironlik paydo bo‘lganidan keyin 1 yil va undan ko‘p ishlaganing uchun sening nogironlik pensiyang qayta hisoblanadi.
	Sening nogironlik pensiyang qayta hisoblansa, unga qo‘shimcha pul qo‘shiladi.

	**Sening nogironlik pensiyang:** ● ishlagan vaqting ● oylik haqidagi hujjating bilan 2 yilda 1 marta qayta hisoblanadi.
	**Sen pensiyani** qayta hisoblash vaqti kelganida xohlagan payting **pensiya jamg‘armasi** bo‘limlariga murojaat qilishing mumkin.
	Masalan, sen pensiyangni ko‘paytirish uchun mart oyida ariza bergan bo‘lsang, apreldan pensiyang ko‘payadi.
	Pensiyangni kamaytirish holati paydo bo‘lsa, qayta hisoblanib, keyingi oydan pensiyang kamayadi.
	Sen qarilik pensiyasidan nogironlik pensiyasiga o‘tmoqchi bo‘lsang, yashash joyingdagi pensiya bo‘limiga kerakli hujjatlar bilan murojaat qilishing kerak.

	Pensiya jamg‘armasi hujjatlarni 10 kunda o‘rganib chiqib, **qarilik pensiyasidan nogironlik pensiyasiga** o‘tkazadi.
	Senda qarilik pensiyasini olayotgan payt nogironlik paydo bo‘lib nogironlik pensiyasiga o‘tmoqchi bo‘lsang, sening avvalgi ishlagan vaqting hisoblanmaydi.
	Sen sababsiz qayta shifokor ko‘rigidan o‘tishga bormagan bo‘lsang, nogironlik pensiyasini berish to‘xtatiladi.
	Sen shifokor ko‘rigidan qayta o‘tib, nogironlik pensiyasini tiklaganingdan keyin pensiya to‘xtatilgan kunidan beriladi.
	Agar pensiya jamg‘armasi senga nogironlik pensiyasi berishni rad etsa, sen sudga shikoyat qilishing mumkin.